



IMOM AD-DORIMIY MAQBARASI VA ILMIY ME'ROSI

Sunnatilloeva Ruxshona

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Murod Xasanov

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom Dorimiyning hayot yo'llari, ilmiy me'rosi va Imom Dorimiy maqbarasi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Samarqand, Ispaniy, Sunani Dorimiy, hadis, Qur'oni karim, odob-axloq, shariat, fiqh, tafsir, shayx, Xuroson, Marv, jo'me, maqbara, taloq, ro'za, zakot, Doram.

Kirish. Maqolada, O'zbekiston zaminidan tug'ilgan, dunyo hadis ilmi ustozlari sanalgan Imom Dorimiyning hayoti va ma'naviy merosi, u meros qoldirgan shoh asarlari davrlaroshax axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganilayotganligiga, Islom dinining tom ma'noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ'ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to'g'risida, uning asl mazmun – mohiyatini teran anglashda, ijtimoiy axloqiy masalalarga targ'ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllantirishda Imom Dorimiy me'rosining o'rni va ahamiyati muhimligiga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Qur'oni Karim Islom dasturi, Islom shariati, hukmlari va odoblarining birinchi manbai ekanligi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari esa Islom shariatining Qur'ondan keyingi ikkinchi asl manbai hisoblanishi, hadis tushunchasi, mazmun mohiyati, Imom al-Dorimiy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmasligi, balki xadislarning jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan



yoshavlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtirishi, yosh avlodni insoniylik fazilatlarini ruxida tarbiyalash to'g'risida fikrlar bildirilgan. Imom Dorimiy merosini o'rganish va tadqiq qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqot bilan bog'liq adabiyotlar tahlil qilingan va ayni paytda Imom Dorimiy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar tahliliga ham e'tibor qaratilgan.

Imom Dorimiy haqida. Xofizul-kabir Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Fazl ibn Bahrom ibn Abdussamad Tamimiy Samarqandiy ad-Dorimiy 182-hijriy sanada (798— [Samarqand](#), Dorim qishlog'i) Samarqandda tavallud topganlar. Xuddi shu yili yirik muhaddis Abdulloh ibn Muborak Marvaziy vafot etgan. Manbalarda shu tarixiy voqea sabab Imom Dorimiyga «Abdulloh» deb ism qo'yilgani qayd etiladi[1]. Muhaddisning bobosi Banu Tamim qabilasi mavlosi hamda [Payg'ambar](#)imiz solallohu alayhi vasallamning kotiblaridan biri bo'lgan Dorim ibn Molik ibn Hanzala ibn Zayd Manot ibn Tamimga bog'langan holda allomaga «Dorimiy» nisbasi qo'llangan. Shu bilan birga, Imom Dorimiyni «Doramiy» nisbasi bilan ataganlar ham bor. Abu Tohirxoja «Samariya» asarida Imom Dorimiy haqida «...U hadis aytuvchilardan. Shavdor tumaniga qarashli Ispaniy qishlog'idadir. U Samarqand muzofotidan bo'lgan, qadimda Doram deb ataladigan qishloqdan bo'lgani uchun Doramiy deb dong chiqargan. Doramiyning tarjimai holi belgilik emas...» kabi mazmundagi ma'lumotni keltiradi. Bunda Abu Tohirxoja uning nisbasini «Doram» deb nomlangan joy nomi bilan bog'laydi. Imom Dorimiy yoshlik chog'laridanoq aql-zakovati, o'tkir zehni, ayniqsa, eslab qolish qobiliyatining o'ta kuchliligi bilan barchani hayratga solgan. Bu haqda Muhammad ibn Ibrohim ibn Mansur Sheroziy: «Imom Dorimiy komil mufasssir edi. U aqlida, fahmda, fazlda, dinda yetuk edi. U zotning yod olish zehnlari, halimliklari, bosiqliklari, tirishqoqliklari, dunyoviy zohidliklari, ibodatlar zarbulmasal qilingandir», – deb ta'rif beradi. Manbalarda Imom Dorimiyning oilasi haqida so'z bormasada, uning kunyasi «Abu Muhammad»ligini e'tiborga olib, Muhammad ismli o'g'li bo'lganini bilish mumkin. Olimning yaqinlari, qarindoshlari ham ilm ahllaridan bo'lgan. Jumladan, allomaning tog'asi Abu Usoma Ahmad ibn Muoviya,



akasining o'g'li Abu Ahmad Fazl ibn Muhammad Dorimiy ham [hadis rivoyat](#) qilganlar. Imom Dorimiy Imom al-Buxoriyning ustozini hisoblanadi.

Imom Dorimiy dastlabki ta'limini o'z yurti Samarqandda oladi. So'ngra o'sha davrda ilm-fan va madaniyat taraqqiy qilgan markazlardan bo'lmish Fustot (Qohira), Damashq, Bag'dod, Makka, Madina, shuningdek, Xurosonning turli shaharlaridagi taniqli olimlardan diniy va dunyoviy fanlar, ayniqsa, hadis ilmi bo'yicha o'z bilimlarini oshiradi. Bu davrda muhaddislar Payg'ambar solallohu alayhi vasallamning sunnatlarini asl holida kelajak avlodga yetkazish uchun ishonchli rivoyatlarni olib, uni sof ko'rinishda, har qanday soxtaliklardan xoli bo'lgan holda to'pladilar. Imom Dorimiy hayotining asosiy qismini ilm talabida safar qilish bilan o'tkazgan olimlar sirasiga kirgan. U safarlari davomida hadislarni eshitib, jamlash bilan cheklanmay, hadis isnodlarining oliy, muttasil (uzluksiz), undagi roviylarning soni kam bo'lishiga ham katta e'tibor qaratgan. Alloma ilmiy safarlarini Xuroson shaharlaridan boshlaydi. Jumladan, mashhur hofiz Nazr ibn Shumayldan (vafoti 818 yil) Marv shahrida hadis ilmidan saboq olib, ko'plab hadislar tinglaydi. Jumladan, Rasululloh solallohu alayhi vasallamning: «Sizlar yetmishta ummatga barobarsiz (tengsiz). Sizlar ummatlarning eng so'nggisi va Alloh nazdida eng e'tiborlisisiz!», degan mazmundagi hadislarini yozib olib, o'zining hadislar to'plamiga kiritadi. So'ngra Imom Dorimiy Iroq shaharlarida bir qancha ustozlardan tahsil oladi. Jumladan, muhaddis taxminan 17-18 yoshlarida Basra shahrida bo'lib, turli roviylardan hadis tinglaydi. Xususan, basralik Ravh ibn Aslamdan (vaf. 815 y.) hadislar eshitadi. Keyin esa, Iroqning Bag'dod, Vosit, Kufa, Hiyt kabi shaharlarida bo'lib, o'z davrining ko'pdan-ko'p yetuk muhaddislaridan hadis ilmini o'rganadi. Imom Dorimiy o'zining «Sunan» asarida 250 dan ortiq shayx-ustozlardan hadis rivoyat qilgan. Ustozlarining asosiy qismini Kufa, Basra, Bag'dod kabi shaharlardan chiqqan roviylar tashkil etadi. Manbalarda uning ustozlari qatorida Muhammad ibn Bashshor, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Faryobiy, Abu Musahhar Dimashqiy, Marvon ibn Muhammad, Abulvahhob ibn Said, Yazid ibn Horun Vositiy, Said ibn Omir Zab'iy, Ja'far ibn Avn, Zayd ibn



Yahyo ibn Abiyd Dimashqiy, Vahb ibn Jarir, Xolid ibn Muhammad, Habbon ibn Hilol, Ashhol ibn Hotam Jumahiy, Zahhok ibn Muhammad, Ubaydulloh ibn Muso, Abul Mug'iyra Foryobiy, Abdusamad ibn Abdulvoris, Yahyo ibn Hasson, Asvad ibn Omir, Bishr ibn Umar Zahroniy kabi allomalar zikr etiladi[2]. Xatib Bag'dodiyning «Bag'dod tarixi» asarida Imom Dorimiy haj safariga ketayotganida Kufada to'xtab, Yahyo ibn Abdulhamid Hammoniy (vaf. 842 y.) va boshqa muhaddislar bilan suhbatda bo'lgani, suhbatlar ko'p hollarda bahs-munozaralarga aylanib, hadis roviylari, isnodlarning ishonchliligi xususida tortishuvlar bo'lgani aytiladi. Xatib Bag'dodiy keltirgan ma'lumotlardagi suhbatdoshlarning hayot yillarini aniqlash orqali Imom Dorimiy taxminan 40 yoshlarida haj ibodatini amalga oshirgani, safar chog'ida ham o'zining asarlari ustida tinmay izlanganini anglash mumkin. Imom Dorimiy arab xalifaligining ko'p shaharlarida o'z bilimlarini oshirib, nihoyat o'z vatani – Samarqandga qaytib keladi. Ilm yo'lida uzoq yillar olib borgan tinimsiz sa'y-harakatlari va izlanishlari natijasida u hadis, tafsir va fiqh ilmlarining allomasi darajasiga ko'tarildi. O'rta asr olimlari «Imom Dorimiyning Samarqandda hadis va osor ilmlarining ravnaq topishida ulkan hissasi bor», deb yakdillik bilan alohida ta'kidlaydilar. Allomaga umrining oxirgi yillarida bosh qozi lavozimi taklif qilinadi. Biroq uning ilm olishga bo'lgan behad qiziqishi va shaharning bosh qozisi lavozimi katta mas'uliyatni talab etishini anglagani ushbu taklifni rad qilishiga sabab bo'lgan.

Imom Dorimiy ilmiy me'rosi. Hadis, tafsir, fiqh ilmlarining allomasi darajasiga ko'tarildi. Asarlari: "Al-Musnad" ("Tayanch"), "At-tafsir" ("Qur'on sharhi"), "Al-Jome'" ("To'plam"), "As-Sulosiyot fil hadiys" ("Hadislardagi uchliklar, ya'ni uch o'zak harfli fe'llar"), "Kitob as-sunna fil hadiys" ("Hadislardagi sunnatlar haqida kitob") asarlari uning ilmiy-ma'naviy me'rosini tashkil etadi. Dorimiyning eng muhim asari "Al-Musnad" bo'lib, "Sunan ad-Dorimiy" nomi bilan mashhur. 2 jildidan iborat bu asar 1996-yilda Bayrutda chop etilgan. Bu asarda haj, zakot, ro'za, nikoh va taloq, vasiyatnoma va ko'plab tushunchalar mazmuni, Payg'ambarimiz Muhammad solallohu alayhi vasallamning musulmonlar ijtimoiy va ma'naviy hayotining hamma sohalari yuzasidan aytgan fikrlari tushuntirib



beriladi. Bu asar "As-sihah as-sitta" (oltita sahih) kitoblari jumlasiga (Ibn Mojaning "Sahih"i o'rniga) kiritilgan. «Sunan» ikki jilddan iborat bo'lib, kitoblarga, ular o'z navbatida boblarga bo'linadi. Asar arablarning islomdan avvalgi ba'zi odatlari, Rasululloh solallohu alayhi vasallamning siyratlari, hadislarining yozilish davri va ilm fazilatiga oid jami 163 sahifalik muqaddima hamda 23 ta kitobdan tashkil topgan. «Sunan» 3465 hadisni o'z ichiga olgan 1403 bobdan iborat[3].

Imom Dorimiyning vafot etgan sanasi, dafn etilgan mavzesi haqida turli xil fikrlar mavjud. Biroq aksariyat ishonchli manbalarda, jumladan, Xatib Bag'dodiy, Abu Hafs Nasafiy, Shamsuddin Zahabiy kabi olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom Dorimiy vafot etgan sana milodiy hisobda 869-yilning 18-noyabriga to'g'ri keladi. Ayrim turk va arab tadqiqotchilarining kitoblarida alloma dafn etilgan joy sifatida Xurosonning Marv shahri ko'rsatiladi. Biroq Shamsuddin Zahabiy «Tarix al-islom» asarida olimning ukasi Ibrohim ibn Abdurahmon Dorimiyning (vaf. 880 y.) Samarqandda vafot etgani hamda akasining yoniga dafn qilingani haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Najmuddin Umar Nasafiy Imom Dorimiy Chokardiza qabristoniga dafn qilingan, unga Samarqand amiri Ahmad ibn Yahyo ibn Asad janoza o'qigan, deb aytsa, «Samariya»da Imom Dorimiyning qabri Shavdor tumanidagi Ispaniy (hoz. Ispandiy) qishlog'ida, Samarqand shahri bilan mozorning orasi 11 chaqirimcha yo'l, deb keltiriladi. Muhaddis janozasini ehtirom yuzasidan Samarqand amirining shaxsan o'zi o'qigani hamda ukasi dafn etilgan joyi haqidagi ma'lumotlar olimning qabri Samarqand yaqinida ekaniga dalolat qiladi.

Maqbara. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikga erishgach ya'ni 2000-yilda Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Ispandiy qishlog'ida Imom Dorimiy maqbarasi va Jome' masjid ta'mirlanib, obod qilindi

¹**Xulosa**

Mustaqillik yillarida yurtimizda Imom Dorimiyning ilmiy-ma'naviy me'rosi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi, ilmiy-ommabop kitoblar chop etildi. Xususan, «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi»

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Hadis va hayot" 1-juz 161 bet.2023

4.M.Alimova «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi» Toshkent 2009



mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (M.Alimova, 2009) himoya qilindi. Toshkent Islom universiteti qoshidagi Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan ulug' allomalarimiz hayoti va ijodiy faoliyati haqida ilmiy-ommabop tilda hikoya qiluvchi «Buyuk ajdodlarimiz» turkumida «Imom Dorimiy» (M.Alimova, 2009), ajdodlarimizning islom dini va madaniyati rivojida alohida o'rin tutgan asarlarini tarjima qilish, ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash va chop etishga qaratilgan «Ma'rifat ziyosi» turkumida «Sunani Dorimiy: saylanma» (Tarjimonlar jamoasi, 2011) kabi risolalar, ko'plab ilmiy maqolalar nashr etildi. Bugungi kunga kelib Imom Dorimiy ilmiy me'rosini chuqur o'rganish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19-sentabr kuni AQSHda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72sessiyasida so'zlagan nutqidan. // <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>
- 2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch–Toshkent: Ma'naviyat, 2008
- 3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Hadis va hayot” 1-juz 161 bet. 2023
- 4. M.Alimova «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi» Toshkent 2009
- 5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 6. O'zME. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
- 7. Buyuk siymolar, allomalar: O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K. 1.–Toshkent, O'zbekiston, 1995.